

QOROVULBOZOR TUMAN LANDSHAFTLARINING EKOLOGIK HOLATINI BAHOLASHNING GEOERAFIK JIHATLARI

Nematov Anvar Nusratovich

Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya

kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qorovulbozor tumani atrof- muhitga ta'sirini baholashning geografik jihatlarini hamda tuman landshaftlarini ekologik holati to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: landshaft, cho'l, biosfera, deflyatsiya, sho'rtob, sho'rxok, tuproq, geoeologik mikrozon, ekologik muvozanat, rekreatsion resurs, buyra qamish, juzg'un, oq boyalich, quyon suyak, fitomelioratsiya.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОЦЕНКИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЛАНДШАФТОВ КАРАУЛБАЗАРСКОГО РАЙОНА

Нематов Анвар Нусратович

Бухарский государственный университет, старший преподаватель

кафедры Экология и географии

Аннотация: В данной статье приводятся подробные сведения об экологическом состоянии районных ландшафтов и географических аспектах оценки воздействия на окружающую среду в Каровулбазарском районе.

Ключевые слова: ландшафт, пустыня, биосфера, дефляция, солончак, почва, геоэкологическая микрозона, экологическое равновесие, рекреационный ресурс, кудрявый тростник, джужгун, белый боялыш, заячья кость, фитомелиорация.

GEOGRAPHIC ASPECTS OF ASSESSING THE ECOLOGICAL STATE OF THE LANDSCAPES OF THE KARaulBAZAR DISTRICT

Nematov Anvar Nusratovich

Bukhara State University, senior lecturer

Abstract: This article provides detailed information on the ecological state of district landscapes and the geographical aspects of environmental impact assessment in the Qorovulbozor district.

Keywords: landscape, desert, biosphere, deflation, salt marsh, salt marsh, soil, geo-ecological microzone, ecological balance, recreational resource, curly reed, juzgun, white dye, rabbit bone, phytomelioration.

XXI asr insoniyatning rivojlanishi tarixida tub burilish asri bo'lishi shubhasizdir. Hozirgi kunda insoniyatning yashash muhiti bo'lgan biosferadagi hayot sharoitlarini kelajak avlodlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda saqlab qolish zarurdir. Buning uchun misli ko'rilmagan sa'y-harakatlarni amalga oshirish, talab qilinadi.

O'zgartirilgan tabiiy muhit, landshaftlarga inson aralashib turmasa, ular o'z tabiiy holatiga qaytishga moyil bo'ladi. Insonning tabiatdan foydalanishi zaruriy ehtiyoj, inson tabiatdan qancha ko'p foydalansa, tabiatda shuncha ko'p o'zgarishlar ro'y beradi. Tabiatning bir butunligi tabiiy boyliklardan kompleks foydalanish zaruriyati bilan bog'liq. Chunki, tabiat unsurlari (iqlim, yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar) tabiatning ajralmas tarkibiy qismlaridir.

Qorovulbozor Buxoro viloyati tumanlarining eng "kenjasi", 1993-yilning 12- yanvar kuni tashkil qilingan. Maydoni 2,2 ming km² viloyat maydoninig atigi 5,5% maydonini egallaydi.

Qorovulbozor tumani, birinchidan, u viloyat markazidan olisda joylashgan, ikkinchidan, viloyatdagi eng janubiy tuman, uchinchidan, tuman hududining relyefi geomorfologik jihatdan bir muncha parchalangan. Bu yerda alohida ifodalangan gumbazsimon platolar qadimgi daryo deltalari hamda baland platosimon tekisliklar nihoyat, yangi o'zlashtirilgan yerlar – Qorovulbozor vohasi mavjud. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda tumandagi geoekologik muammolarni o'rganish mazkur ishning dolzarbligini ahamiyat kasb

etadi. Landshaftlarni u yoki bu maqsad uchun baholar ekanmiz, subyekt ta'sirida keyinchalik qanday o'zgarishlarga moyil bo'lishi va ular qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilishimiz kerak. Inson faoliyati ta'sirida (qishloq xo'jaligi, shaharsozlik yoki biror inshoot qurilishi kabi sohalarda) landshaftlarning o'zgarishi va bu o'zgarishning oqibatlarini oldindan aytib berish, ya'ni bashoratlash lozimdir.

Qorovulbozor tumani landshaft ekologik guruhlarini ajratilgan holda baholanganda kseromorf landshaft tipiga kiradi. U asosiy katta qismi mo'tadil ekologik holatda, shimoli-sharqiy past tog'li qismi qoniqarli darajada shakllangan. Qorovulbozor tumani ekologik holat darajasiga ko'ra mo'tadil, keskin bo'lib, landshaftlar ekologik jihatdan baholanganda, kseromorf hamda antropogen guruhiga mansub. Jarqoq, Qorovulbozor shahri atroflarida kuchsiz sho'rlangan maydonlar 120 ballni tashkil etadi. Do'stlik kanali atrofidagi yerlarga grunt suvlar sathi 2 metr hisobida. Tuman relyefining aksariyat joylarida atmosfera yog'inlari qish va bahor oylarida yuza oqimlar hosil qiladi. Ana shunday joylarni nam suv yig'uvchi jo'yaklar usuli bilan fitomelioratsiya qilish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, yalanglangan, shamolro'y maydonlar, ayniqsa, gaz-neft qidiruv va qazib olish bilan bog'liq rayonlarda hosil bo'lgan texnogen landshaftlar bunday tadbirlarga muhtoj.[2]

Yaylov qudrati past bo'lgan mazkur landshaftlarni fitomelioratsiya yo'li bilan boyitish yo'llari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti olimlari tomonidan amalda isbotlangan (Teoretich. osn. i metod fitomeliorasii... T.1973).

Cho'l bag'rida faoliyat boshlaganiga 30 yildan oshgan Qorovulbozor davlat o'rmon xo'jaligi tomonidan hozirda 4 ming 470 gektar yer maydonda ellikka yaqin ishchi-mutaxassis mehnati va jonbozligi bilan turli-tuman manzarali daraxt va buta ko'chatlari ko'paytirilmoqda. [4]

Xo'jalikda bugunga kelib 2 mln tupdan ortiq ko'chat tayyorlangan bo'lib, viloyatimiz bo'ylab buyurtmachi xo'jaliklariga peshma-pesh yetkazib berilmoqda.

Ayniqsa, qayrag'och, sadaqayrag'och, kulyon, sasna, katalpa, mejavelnik, tut va yasin ko'chatlariga talab yuqori bo'lmoqda.

Qolaversa, Qorovulbozor davlat o'rmon xo'jaligida ko'chatchilik bilan birga keyingi yillarda chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik tarmoqlari ham rivojlantirilmoqda. Jumladan, ayni kunda o'rmon xo'jaligi tasarrufidagi yaylovda 600 boshdan ortiq yirik va mayda shoxli qoramol, 700 boshdan ortiq tovuq hamda jamoa mirishkorlari tomonidan 110 ta asalari oilasi parvarishlanmoqda.

Cho'l yaylovlardagi saksovuлdan barpo qilingan ixota daraxtzorlarida ozuqalardan 20-25%gacha qo'shimcha hosil olish imkonini yaratadi. Hayvonlarning iste'mol qilishi va urug'ini yeyishiga qaramay, saksovuлzorlardagi hosil 8-10s/ga oshadi. Pirovardida chorvachilik uchun ozuqa bazasi yaratiladi.

Qorovulbozor tumanida quyidagi yaylov tiplari ajratilgan:

Juzg'unli-iloqli-efemerli-oq saksovuлли yaylovlar; Bu yaylov tipi xo'jalikda eng katta maydonni egallaydi – 217235 ga. Bu yaylovlarning o'rtacha hosildorligi gektaridan 1,8 sentner yoyiluvchan massani tashkil qiladi.

Qum uyumlarida daraxt yoki yirik butalardan oq saksovuл, juzg'un (qandim), cherkez; butalardan oq boyalich, quyon suyak, qizilcha kabi o'simliklar o'sadi.

Saksovuлли-selinli-aralash o'tli yaylovlar;

Saksovuлning xalq xo'jaligida ahamiyati katta. Undan, asosan, o'tin (yoqilg'i), qo'ylar va tuyalar uchun to'yimli ozuqa, qumlarni mustahkamlovchi, shamolni to'suvchi vosita sifatida foydalaniladi. Saksovuл o'rmonlari tuproqni eroziyadan saqlashda muhim o'rinda turadi. Tumanda Nog'oratepa deb atalmish saksovuлzorlar ichida turli xil chiqindilarni keltirib tashlangan. Yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida yaylov uchun xos bo'lgan o'simliklar turi, ayniqsa, dorivor o'simlik isiriq ham yo'qolib bormoqda.[2, 3]

Do'stlik kanalining o'ng sohilida jiydazor yo'laklar tashkil qilingan ular ayni paytda gullab xushbo'y hid taratib turibdi. Aslida jiydalarni (xasaki emas qush jiyda, non jiyda) o'stirib hosil olsa tadbirkorilik qilsa bo'ladi. Amalda esa suv bo'yida qamish, tol, turong'il, teragi o'sib, to'qay hosil qiladi. Shunday

jiydazorlarni sugʻoriladigan dala atroflarida tashkil qilish lozim. Birinchidan-yaxshi hosil olinadi, ikkinchidan – ular ihotazor sifatida ekinlarni tuproqni shamol eroziyasidan garmseldan himoya qiladi.

Qorovulbozorda shimoldan –janub tomonga yoʻnalgan yassi yuzali yolsimon qirlar katta maydonni egallaydi. Ular mayda donador (qumoq, qumli qatlamlardan iborat lekin qir tepaliklar ostida gilli qatlam mavjud ular sargʻish rangga ega boʻlib yomgʻir yogʻsa boʻtqaga aylanadi ilashimli holatga keladi. Yozda qaqrab yotadi va mashinalar oʻtganda chang- toʻzon hosil qiladi ushbu mavzeda dala yoʻllari mavjud. Ular tartibsiz, turli kenglikda, baʼzan kengligi 20-30 metr gacha boradi. Asosiy yoʻllarni asfaltlash kerak, aks holda yoʻllar katta maydondagi yaylovzorlarni nobud qiladi “Yoʻl-choʻlni asraydi” degan hikmat shundan kelib chiqqan.

Choʻl yaylovlardagi saksovuldan barpo qilingan ixota daraxtzorlarida ozuqalardan 20-25%gacha qoʻshimcha hosil olish imkonini yaratadi. Hayvonlarning isteʼmol qilishi va urugʻini yeyishiga qaramay, saksovulzorlardagi hosil 8-10s/ga oshadi. Pirovardida chorvachilik uchun ozuqa bazasi yaratiladi.

Xulosa qilib shuni taʼkidlash kerakki, fan-texnika inqilobi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni yaxshilash boʻyicha insoniyat uchun juda katta imkoniyat tugʻdirdi. Biroq, ayni vaqtda u koʻpincha tabiiy muhitning ancha ifloslanishiga va tabiiy sharoitning yomonlashuviga ham olib keldi.

Geoekologik holatini oʻrganish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirishni joiz deb topdik:

1. Tashlandiq kovlangan yerlarni (texnogen landshaftlarni rekultivatsiya qilish) zarur.
2. Quduq (qoʻshlar) atroflarida saksovulzor oʻrmonlarni tashkil qilish (Poʻstindoʻz qudugʻi atrofida qoʻshlar tashkil qilingan).
3. Choʻllardagi qoʻsh turar joylarni zamonaviy holga keltirish lozim.
4. Kanalboʻyi qayirlarda mevali daraxtlar jiydazorlar oʻstirish, oʻng sohilidan asfalt yoʻl oʻtkazish lozim, chunki bu yerda shamollar shimol, shimoliy-

sharqdan esadi, hamda yo'lda ko'tarilgan chang, to'zon kanal o'zaniga tushadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Амонов З.М. Требования, предъявляемые маркетологу в условиях цифровизации экономики. Экономика и социум Москва: 2024. №05, С.20-24.
2. Mirzoeva I.E., Babamurodova N.J., Qalandarova. D.D. Geoeological principles of effective landscape organization of Karaulbazar district. E3S Web of Conferences 389, 04019 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338904019> UESF-2023
3. Mirzayeva I.E., Nematov A.N. Ecology of Karaulbazar Oil Processing Plant and Its Impact on the Environment. Eurasian Journal of Engineering and Technology Volume 8| July, 2022.
4. Назаров И.К. , Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси. Бухоро, 1994.– 67 б.
5. Солиев Б. Қоровулбозор тумани: ўтмиш, бугун ва келажак чорраҳасида. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти, 2013.